

## O`ZBEK AYOLLARINING IKKINCHI JAHON URUSHI FRONTLARIDAGI FAOLIYATI

**Komila Xurramova**

O`zMU Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o`zbek ayollarining ikkinchi jahon urushi frontlaridagi faoliyati, urush frontlarida ko`rsatgan jasoratlari haqida ma`lumot beradi.

**Kalit so`zlar:** Davlat mudofaa qo`mitasi (DMQ), Qizil Armiya, “Qizil Yulduz”, “Vatan uchun” ordenlari, “Jasurligi uchun” medali.

### KIRISH

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, qanchadan-qancha voqea-hodisalarni bevosita ishtirokchisi sifatida boshidan kechirdi. Insoniyat XX asrda fan-texnika taraqqiyotida, ixtiro va kashfiyotlar bobida ancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Jumladan, Ikkinchi jahon urushi butun insoniyat tarixida misli ko`rilmagan darajada azob-uqubatlar, yo`qotishlar va vayronagarchiliklar keltirdi. Bu urush jahonning yirik davlatlari tomonidan dunyoni iqtisodiy, siyosiy va hududiy hamda strategik jihatdan bo`lib olish maqsadida olib borildi. Bu qirg`in-barot urushning tashabbuskori sifatida fashistlar germaniyasi o`zini yetarli darajada urush sharoitiga tayyorligini hisobga olib boshladi. Asosiy janglar Gitler Germaniyasi va Sovet davlati hududida olib borilganligi sababli O`zbekiston ham ittifoq tarkibida bu urushda qatnashib o`zining munosib jasoratlarini namoyon eta oldi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O`zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A .Karimov ta`kidlaganidek ”Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urushda qaysi g`oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo`lmasin, o`z Vatani el-yurtining yorug` kelajagi, beg`ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo`lganlarni, o`z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz. Bu achchiq, lekin oliy haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo`q va bunga yo`l ham bermaymiz. Urush yillari - O`zbekiston tarixining uzviy bir qismi. Biz tariximizdan biror sahifani olib tashlamaymiz. Bu tarix –bizniki uni unutishga hech kimning haqqi yo`q”. O'zbek aholisi ko`ngilli va ixtiyoriy ravishda urushga sararbar etilib, fashist bosqinchilariga

qarshi kurashda bor kuch-shijoati, gʻayati bilan qoʻliga qurol tutib, kurashga otlandi. Shuningdek, mard-jasur oʻgʻlonlar bilan birgalikda yurt ravnaqi uchun kurashgan, fidoyi va qahramon boʻlgan mard-u maydon ayollar ham kurash olib bordilar. Ikkinchi jahon urushida Oʻzbekistonlik ayollar oʻzlarining vatanparvarligi, insonparvarligi va fidoyiligini namoyon etgan holda qahramonliklar koʻrsatdi. Oʻzbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov aytganidek: “Butun maʼrifiy dunyoda xotin –qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni oʻrganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli eʼtibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi boʻlmasligi haqida oʻylaymanki, uzoq gapirib oʻtirishning hojati yoʻq”. Bu borada yaqin oʻtmish sovet davri tajribasini sinchiklab oʻrganish va undan zarur saboqlar chiqarish muhim. Sovet davlati ham fashizmni dunyoga hukmronlik qilishiga qarshi, insoniyat boshiga keltirishi mumkin boʻlgan falokatlarni oldini olish uchun kurashyapmiz degan gʻoya ostida kurashgan. Aslida ikki hukmron kuch ham dunyoga hukmronlikka intilib kurash olib borgan. 1941-yil 30-iyunda I.V.Stalin boshchiligidagi davlat mudofaa qoʻmitasi (DMQ) tuzilib, barcha ishlar yagona shaxs qoʻlida toʻplandi. Tish-tirnogʻigacha qurollangan fashistlar Germaniyasi bilan kurash oson emasini yaxshi bilardi. Sovet davlatini urush sharoitiga moslash uchun 1941-yil 3-iyulda Stalin radio orqali xalqqa murojat bilan chiqib, bor haqiqatni aytishga majbur boʻldi<sup>1</sup>. Ushbu voqeadan soʻng Sovet davlati oʻzining tarkibidagi barcha davlatlar, viloyatlar, tumanlar va qishloq okruglarida namoyish oʻtkazilib, xalqqa murojatlar qilinib, aholini urush sharoitiga moslab tayyorlash, bosqinchilarga qarshi kurashda mardonavorlik, vatanparlik tuygʻusini kuchaytirib dushmanlarni vatan hududiga kiritmaslik uchun bor kuch-shijoatini, fashistlarga qarshi nafrat bilan yurtini himoya qilish haqida daʼvatlar qilinib, oʻz xalqini va barchani bu sharafli ishga chorlovchi namoyish boʻldi. Davlat Mudofaa Qoʻmitasining 1941-yil 18-sentabridagi “SSSR grajdanlariga harbiy ishni yoppasiga majburiy oʻtkazish toʻgʻrisida” gi qaroriga binoan “Sovet ittifoqining qurol koʻtarishga qodir boʻlgan har bir grajdani qoʻliga qurol olib, oʻz Vatanini himoya qilishga tayyor boʻlib turishi lozim”<sup>2</sup>. Bunga javoban ittifoq tarkibidagi barcha jasur oʻgʻlonlar, jumladan, oʻzbeklardan surxon vohasining 50 365 nafar mard oʻgʻlonlari hayot-mamot janrlarida qoʻllariga qurol olib, dushmanga qarshi ayovsiz kurashdilar. Urushning dastlabki yillarida sovet hokimiyati oʻzining qatʼiy talablari, zoʻravonlik siyosati va markazga boʻysundirish uchun qatʼiy va keskin

<sup>1</sup> Inoyatov H.Gʻalabaga qoʻshilgan hissa. –T.:Fan.1975. –B.5-6.

<sup>2</sup> Oʻzbekiston tarixi (1917-1991-yy) 2-kitob. –T.: Oʻzbekiston, 2019. –B.38.

choralarini amalga oshirdi. Darhaqiqat, qanday qilib bo'lsa ham dushmani mag'lubiyatga uchratish uchun o'zining Stalincha siyosatlari bilan oddiy xalq vakillaridan foydalandi. Garchi, bu adolatsiz ekanligini bilsalar-da. Shunday bo'lishiga qaramasdan sovet davlati vakillari o'zining oliy maqsadlari yo'lida hech narsadan qaytmadilar. Bizga tarixdan ma'lumki, 1941-yilning 22-iyunida harbiy safarbarlik e'lon qilinib, sovet ittifoqi tarkibidagi O'zbekistonning yuragida o'ti bor o'g'lonlari ham dastlabki yillarda 32-ming kishi frontga jo'nash uchun ariza berdilar. 23-24-iyun kunlari Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona va boshqa shaharlarda namoyish bo'lib o'tdi. Qoraqalpog'iston Nukusda ham 23-iyun kuni namoyish bo'lib, ko'plab aholi ko'ngilli ravishda fashistlarga qarshi kurashga otlandi<sup>3</sup>. Urushning boshlarida O'zbekistonlik ayollar urushga ketgan otalari, aka-ukalari va turmush o'rtog'lari o'niga dala ishlarida, jumladan, traktor haydash, paxta terimi umuman olganda ayollarga munosib ishlar bilan emas, balki og'ir yumushlarni ham bajardi. 1941-yilning 15-oktabriga qadar bo'lgan vaqt mobaynida 800 nafar xotin-qiz "frontga ketgan yigitlarning o'rnini olishi kerak", degan chaqiriq bilan chiqdi<sup>4</sup>. Dala ishlari, uy-yumushlari va bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lmasdan bosqinchilarga qarshi kurashda qo'lga qurol tuta oladigan mard-u maydon ayollar ko'payib, endilikda ular ham urush frontlarida fashistlarga qarshi kurashda jasur o'g'lonlar bilan birgalikda kurashishni or-nomus masalasi deb hisoblab, kurashga otlandi. 1941-yil 5-iyulida Toshkent shahrining Oktabr rayonida miting bo'lib, unda 15-ming xotin-qiz qatnashdi. Bu mitingda "Qimmatli opa-singillar!," "Hamimiz bir yoqadan bosh chiqarib, sevimli Vatanimizni himoya qilaylik, dastgoh, transport, traktor va kombaynlarda ishlab erlarimiz, aka-ukalarimizning o'rnini bosaylik. Bu urushda hech kimni qo'l qovushtirib o'tirishga haqqi yo'q. Biz front orqasida g'alaba qozonamiz degan chaqiriqlari mavjud<sup>5</sup> Ikkinchi jahon urushiga ishchilar, ziyolilar, xizmatchilar, san'atkor va qo'shiqchilar, tibbiyot xodimlari va talaba yoshlar shuningdek, yuragida o'ti bor har qanday insonlar safarbar etildi. Ular jonajon yurtini dushmanga bermaslik uchun bor kuchlarini ayamasdan kurashdilar. Urushning dastlabki yillaridayoq, Toshkent shahridan 100-ming yigit-qizlar frontga safarbar etildi<sup>6</sup>. Boshqa viloyatlardan ham ko'ngilli sifatida urushga otlanganlar mavjud. Jumladan, Samarqand viloyatidan frontga yuborishlarini so'rab, 1316-kishi ariza bergan bo'lsa, 1941-yil 4-avgustga kelib, ularning soni 2988 taga yetdi. Ularni

<sup>3</sup> Inoyatov H. G'alabaga qo'shilgan hissa. –T.: Fan. 1975. –B.12.

<sup>4</sup> Surxondaryo tarixi Tursunov S, Qobilov E, Murtazoev B, Pardayev T. –T.: Sharq, 2004. –B.327.

<sup>5</sup> Inoyatov H. G'alabaga qo'shilgan hissa. –T.: Fan. 1975. –B.19-20.

<sup>6</sup> Хотира Тошкент ш .1-китоб –Т.: комуслар бош тахрирати. 1994. –B.6.

613 tasi xotin-qizlar edi<sup>7</sup>. Vaholanki, har bir hududlarda bosqinchilarga qarshi kurashda qahr-u g`azabga to`la, urushga otlangan mard va jasur ayollar bisyor edi. Darhaqiqat, ikkinchi jahon urushi frontlariga sanitariy (hamshira) xodimlar, teatr va san`at xodimlari, talaba qizlar va ularning jangovar dugonalari, shuningdek, yuragida Vatanga muhabbat hissi kuchli bo`lgan mard-u maydon ayollar jangga otlanishdi. Vaholanki, ularning deyarli ko`pchiligi ko`ngilli sifatida urushga jo`nadi. Birgina Shahrisabz shahridan urushning dastlabki bir necha kun ichida 1148 kishi harakatdagi armiyaga ixtiyoriy jo`nadi, ulardan 10 tasi xotin –qizlar edi<sup>8</sup>. Joylarda aholini urush sharoitiga moslab tayyorlash va fashist bosqinchilariga qarshi targ`ibot-tashviqot ishlari jadallashtirilganligi sababli, kurashga otlangan ayollar safi kengaydi. Jumladan, sovet ittifoqi 1941-1943-yillar mobaynida Toshkent viloyatidan 37-ming yigit –qizni Qizil Armiyaga yo`lladi. Ana shulardan 10-minggi Milliy qismlarga qabul qilindi<sup>9</sup>. Fashist bosqinchilariga qarshi kurashda Sirdaryo viloyatining 15 252 nafar o`g`il –qizlari hayot-mamot janglariga otlandi. Toshkent viloyatidan ikkinchi jahon urushiga 200-ming o`g`il –qizlar safarbar etildi<sup>10</sup>. Harbiy safarbarlikka javoban, Xorazm viloyatidan harbiy komissariyatga urush boshlanganidan bir necha kun o`tar –o`tmaz 1156 ariza ( shulardan 147 nafari xotin-qizlardan iborat edi) tushdi. Viloyatning 1213 nafar xotin- qizlari yangi ishlab chiqarish kasblarini o`rgandilar va jangga otlanganlarning o`rnilarida o`zlarining faoliyatlarini namoyon eta boshladilar. Fashizmga qarshi olib borilgan dahshatli janglarda 67 300 nafardan ziyod xorazmliklar o`zlarining aziz jonlarini ayashmasdan bu qonli kurashda ishtirok etishdi<sup>11</sup>. Sovet ittifoqi tarkibidagi jonajon yurtini himoya qilish uchun kurashga otlangan ayollardan biri Roza Ibrohimova edi. 1943-yilning yozida O`zbekistondagi aloqachilik maktabini tugatib, Moskva yaqinidagi radio vazonga borib tushdi<sup>12</sup>. Roza Ibrohimova Berlinni ishg`ol qilish uchun bo`lgan janglarda ishtirok etib munosib qahramonliklar namoyon eta oldi. Urushning birinchi haftasida farg`onaliklardan urushga safarbar etishlarini so`rab 1735 ariza (shundan 423 nafari xotin –qizlardan iborat edi) tushdi. Farg`onada 8 ta sanitary otryadi (ularda 280 nafar xotin-qizlar o`qidi ) va Qo`qonda 6 ta sanitar otryadi (ularda 220 nafar xotin –qizlar o`qidi ) tuzildi. Urush yillarida farg`onaliklardan bir necha yuz ming ko`ngillilar fashizmga qarshi kurashda ishtirok etdilar<sup>13</sup>. Joylarda fashist

<sup>7</sup> Хотира Самарканд в. 1-китоб –Т.: Ибн сино номидаги нашриет-матбаа бирлашмаси ,1994. – В. 5.

<sup>8</sup> Yorbozorova Z. Ikkinchi jahon yillarida O`zbekiston xotin-qizlar faoliyati. B.M.I.-Qarshi. 2013.

<sup>9</sup> Inoyatov H.G`alabaga qo`shilgan hissa. –Т.:Fan. 1975. –В.16.

<sup>10</sup> Yorbozorova Z. Ikkinchi jahon urushi yillarida O`zbekiston xotin-qizlar faoliyati. B.M.I. –Qarshi. 2013.

<sup>11</sup> Хотира Хоразм в. 1 китоб –Т.: Г Гулом номидаги адабиет. 1994. –В. 6-7.

<sup>12</sup> Yorbozorova Z. Ikkinchi jahon yillarida O`zbekistonlik xotin-qizlar faoliyati. B.M.I. Qarshi. 2013.

<sup>13</sup> Хотира Фаргона 2 китоб .–Т.: Комуслар бош тахририяти . 1994. –В. 5.

bosqinchilariga qarshi kurash bo'yicha targ'ibot –tashviqot ishlari olib borildi. Sovet ittifoqi tarkibidagi aholining dushmanga qarshi nafrati ,qahr-g'azabi kuchaydi.Shu jumladan,Andijondan hammasi bo'lib , 97 ming kishi urushga safarbar etildi<sup>14</sup>.Ularning ma'lum qismini ayollar tashkil etadi.Sovet ittifoqi dushmanga qarshi jangovar turish uchun tezlik bilan turli xildagi qaror-farmonlar ishlab chiqdi. 1941-yil 18- sentabrdagi qaroriga binoan, “har bir qurol tutishga qodir bo'lganlarga harbiy qurollar bilan tanishtirib , urush sharoitiga moslab tayyorlashdan” iborat edi.Bu jarayonda ayollar ham qurol-yaroqlar bilan tanishib , harbiy usullarni o'rganib ,yurt himoyasi uchun kurashga bel bog'ladilar. Sovet davlati ittifoqi tarkibidagi barcha ayollar:turkman, qozoq, ozarbayjon,tojik,qirg'iz va shuningdek, o'zbek ayollari ham qahramonlik namoyon etdi. 1941-yilning qishida nemis armiyasining Ukraina va boshqa hududlarga hujumi bo'ldi. Sovet davlati hududida yanada kuchli safarbarlik bo'lib,unda boshqa xalq ayollari singari o'zbek ayollari ham ishtirok etdi.Ularning qahramonligini e'tirof etgan.Xususan , Ukraina uchun olib borilgan janglarda Buxorodan Rahima Alimova degan komsomol qiz, ayniqsa , qahramonlik ko'rsatmoqda deb yozgan edi potpolkovnik Savvin<sup>15</sup>.1943-yilning 18-iyulidan 28-iyuligacha Shimoliy Dones daryosi qirg'oqlarida Donbas uchun bo'lgan, o'nlab jang bo'ldi. Shu vaqtda pulemyot va minomyot o'qi ostida 97 yarador jangchi va ofitserga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatildi .1-sentabrdan 21-sentabrgacha davom etgan , 20 kunlik hujum janglari vaqtida Rahima Alimova mardonavor harakat qildi.Bu safar 30 jangchi va ofitserni qurol-yarog'i bilan jang maydonidan olib chiqib ,zarur medisina yordami ko'rsatildi.Hayot qolgan jangchi va ofitserlar Rahima Alimovaga hali-hali o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar<sup>16</sup>.Shu kabi ayollardan Jamila Husainova ham harbiy tayyorgarlikdan so'ng , Shimoliy Don daryosi bo'yida jangga kirib, undan so'ng janubiy-g'arbiy front chizig'ida , Ukrainani ozod qilishda qatnashdi<sup>17</sup>.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sovet hukumatining tez orada vrach va hamshiralarni urush sharoitiga moslab tayyorlash ishlari jadallashtirib yuborildi.Xususan,1941-yil oktabr oyida “Sanitariya mudofaasiga tayyorlan “nomli chaqirig'i ham xalq tomonidan munosib qabul

<sup>14</sup> Хотира Андижон. 1 китоб. –Т.: Мехнат. 1994. –Б. 6.

<sup>15</sup> Vatan sharafi uchun .1944-yil 16-yanvar.N-3 (193).Tuzuvchi:Shamsutdinov R.To'plam:Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari,II kitob. –Т.: Akademnashr.2017. –B.26.

<sup>16</sup> Vatan sharafi uchun 1944-yil 16-yanvar .N-3(193).Tuzuvchi:Shamsutdinov R.To'plam:Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari,II kitob. –Т.:Akademnashr,2017. –B.26.

<sup>17</sup> Karimov I.A. O'zbekiston:Milliy istiqloq, iqtisod,siyosat,mafкура.I jild. –Т.:O'zbekiston.1996. –B.54.

qilinib, joylarda qon quyish operatsiyasi, harbiy-dala operatsiyasni, jumladan, hamshiralalar xirurg vrachlar bajaradigan ishlarni mashq qilib frontga jo`nashga tayyorlandilar<sup>18</sup>. Joylarda medisina xodimlari tayyorlaydigan o`quv kurslari tashkil etildi. Jumladan, Toshkent va Samarqand meditsina institutlari 1941-yildan 1945-yilgacha 3257 vrach tayyorladi, shuningdek, 4864 medisina xodimlari yetishish chiqdi<sup>19</sup>. Vaholanki, 25 sanitar drujinasida 266 nafar tibbiyot hamshirasi tayyorlandi<sup>20</sup>. Bu kabi o`quv yurtlarini tamomlab, keyin frontga borib, yarador jangchi va askarlarga tibbiy xizmat ko`rsatildi. Mana shunday medisina xizmatining starshiy leytenant Sobira Majidova va Maryam Yusupova kabi najotbaxsh ayollarimiz o`z hayotlarini xavf ostiga qo`yib bo`lsada yaralangan jangchi va ofitserlarni urush olovidan olib chiqdilar. Shuning uchun ham Sohibboyev ham Zuev va Mamatov kabi o`nlab jangchilar o`z hayotlarini saqlab qolgan opalarini hech qachon unutmaydilar<sup>21</sup>. Sobira Majidova 1942-yilning qahraton qishida II`men ko`lidan uzoq bo`lmagan joydagi yerto`lalarda yarador jangchilarning jarohatiga mohirlik bilan malham qo`yib, Desna sohillarida, Branyansk o`rmonlarida jangchilar bilan bir qatorda botqoqliklar kechib, o`zining jangovar ruhini namoyon etdi<sup>22</sup>. 1941-yil institutni davolash fakultetini tamomlagan Muqaddam Ashrapova bilan birga uning dugonalari Anvara Muharramova, Po`latoy Qodirova, Sobira Majidova lar ham urushga borib askarlarni saqlash uchun fidoyilik namoyon etdilar<sup>23</sup>. Rahmat Hamroyeva uning yonidagi dugonalaridan Qumri va Saidalar ham aziz jonlarini ayamadan bosqinchilarga qarshi kurash uchun frontga jo`nab ketdilar<sup>24</sup>. Rayhon Hamroyeva va uning hamrohlari jangchilarga tibbiy xizmat ko`rsatdilar. 1943-yilning yanvar oyida bir guruh vrachlar Volga bo`yida turgan qo`shinlar safiga kelib qo`shildi. Bu vrachlar orasida O`zbekistonlik Ruqiya Ismoilova bo`lib, u ham urush janggohlarida yaralangan askarlarga munosib yordam ko`rsatdi<sup>25</sup>. Ikkinchi jahon urushi frontlarida O`zbekistonlik ayollar ittifoq tarkibidagi askar va zobitlarning aziz jonlarini asrashda o`zbek qiziga xos bo`lgan jasorat va qahramonliklarini namoyon eta oldilar. Bu kabi jasur ayollar faqatgina hamshira bo`lmasdan, balki dushmanga qarshi kurashda ham o`zlarining munosib qahramonligini namoyon etdilar. 1942-yilning iyun oyida

<sup>18</sup> Inoyatov H.G`alabaga qo`shilgan hissa .-T.:Fan.1975. –B.47.

<sup>19</sup> Inoyatov H.G`alabaga qo`shilgan hissa .-T.:Fan. 1975. –B.88.

<sup>20</sup> Surxondaryo tarixi. Tursunov S, Qobilov E, Murtazayev B, Pardayev T. –T.:Sharq, 2004. –B.345.

<sup>21</sup> Qizil armiya 1944-yil 7-mart. N-20 (125). Tuzuvchi :Shamsutdinov R. To`plam: Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalar. III kitob. –T.:Akademnashr.2017. –B.41.

<sup>22</sup> «Bong» gazeta. 1944-yil 19-may. N-41(121). Tuzuvchi :Shamsutdinov R. To`plam: Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalar. III kitob. –T.:Akademnashr, 2017. –B.441.

<sup>23</sup> Adham Rahmat. Shinelli qizlar . –T.: ,1970. –B.34.

<sup>24</sup> Jo`rayev T. O`zbekiston jangchilari Ulug` Vatan urushi frontlarida. –T.:Fan.1975. –B.32.

<sup>25</sup> Adham Rahmat. Shinelli qizlar . –T.: , 1970. –B.86.

Buxorolik 21 nafar qiz Vatan ozodligi uchun urushga ketish haqida ariza berdilar.Ularning 11 nafari O`zbekistonlik qizlar edi. Mana shunday ayollarda biri Xosiyat Halimova bo`lib, u aloqachilar institutini tamomlab, 90-o`qchi brigadasida xizmat qilib ,jang maydonlarida uzilgan aloqa simlarini ulash,aloqani tiklashda qahramonlik namoyon etdi<sup>26</sup>. Urushga ixtiyoriy ravishda jo`nagan Roza Ibrohimova esa 1943-yilning yoz oyida Moskva yaqinidagi radiovazonga borib tushib,urushda razvedkachi sifatida qatnashib qahramonliklar namoyon etdi<sup>27</sup>.Zebo G`aniyeva razvedkachilar safida o`z hayotini xavf ostida qoldirib, 12 marta “til” (dushmanning rejalarini bilib olish maqsadida tirik asir tutib kelish)operatsiyasida ishtirok etib shuhrat qozondi<sup>28</sup>. Zebo G`aniyeva I.V.Stalinning 1942-yil 28-iyuldagi N-227 sonli “Bir qadam ham orqaga chekinilmasin” nomli qaroriga binoan 28 fashistni yer tishlatdi<sup>29</sup>.Urush yillarida 2 Ukraina frontidagi 132 –o`q sostavi bilan birga Xarkov,Praga va Budapesht shaharlarini ozod qilishda Chexoslovakiya, Avstriya,Karpat tog`lari hamda Ruminiya uchun bo`lgan janglarda yuzlarcha askarlar hayotini saqlab, qahramonlik ko`rsatgan o`zbek ayol Xanifa Mamatkazina edi<sup>30</sup>. Umuman,ayollar qayerda va qanday sharoitda bo`lmasin,yurtni or-nomus masalasi sanab qo`lida qurol tutib dushmanga qarshi kurashdilar.Urush yillarida inson ruhi masalasi bosh omil edi.Dushmanga qarshi kurashishda askar va zobitlarimizga ko`tarinkilik ulashish maqsadida turli konsert guruhlari gastrollar uyishtirib,sovet jangchilariga fashistlarga qarshi kurashda ruh ta`minlab turdi.Darhaqiqat, SSSR xalq artisti unvonini va SSSR Davlat mukofotini olgan Tamaraxonim rahbarligidagi o`zbek filarmoniyasining chiqishi jangchilarga juda manzur bo`ldi.Xususan,Tamaraxonim o`z esdaliklarida -,”pana joy yer to`lalarda bekinib,nemis aviatsiyasi hujumini tugashini kutib turardik,keyin yana konsertni davom ettirardik.Konsert vaqtida jangchilar nomma-nom yoki butun bo`linmasi bilan chaqirilmaguncha tarqalib ketishmasdi.Konsert tomoshabinlarga katta kuch va ruh baxsh etganligidan na qo`rquv va na charchoqni bilardik”<sup>31</sup>.Tamaraxonim urush yillarida jangchilar uchun 1000 marta konsert berib,ularni g`alaba sari ruhlantirdi.U Vena shahridagi Qizil Armiya Ofitserlari Uyi sahnasida qoraqalpoq xalq kuyini ijro

<sup>26</sup> Yorbozorova Z ko`rsatilgan asar.

<sup>27</sup> Ko`rsatilgan asar.

<sup>28</sup> Vatan uchun 1942-yil 5-noyabrdagi soni.Tuzuvchi:Shamsutdinov R.To`plam:Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetolari.I kitob. – T.:Akademnashr.2017. –B.29.

<sup>29</sup> История России для поступающих в вузы.В.И.Моряков,В.А.Федеров,Ю.А.Шатунов –Москва.2006 –С.376.

<sup>30</sup> Adham Rahmat.Shinelli qizlar. –T.:, 1970. –B.98-102.

<sup>31</sup> Inoyatov H.G`alabaga qo`shilgan hissa. –T.:Fan.1975. –B.87.

etdi <sup>32</sup>.Sovet ittifoqi tarkibidagi askar-zobitlarga jangovar ruh bag`ishlab turgan qahramon ayollardan biri sifatida Rahima Alimova edi.Rahima Alimova ,drama teatri artisti E`tibor Oripova kabilar urush yillarida Moskva ,Stalingrad, Kursk va Minsk ostonalarida jang harakatlarida ishtirok etib,o`zlarining ijod namunalari namoyish etib,jangchilarni g`alabaga ruhlantirdi<sup>33</sup>. Front ichida urushdan charchagan askarlarni ruhlantirish maqsadida G`arbiy frontga Gavhar Rahimova rahbarligidagi respublikamiz san`atkorlari tarkibida frontning eng qizigan o`choqlarida madaniy xizmat qilib, o`zining yoqimli qo`shiqlari bilan dushmani yengishda jangchilarga madad bo`ldi<sup>34</sup>. Sovet ittifoqi tarkibidagi barcha urush qatnashchilari safida O`zbekistonlik askar –zobitlar bilan ikkinchi jahon urush frontlarida dushmanga qarshi kurashib, erk –iqboli, mustaqilligini ta`minlashda o`zlarining aziz jonlarini ayamadan yurt himoyasi uchun kurashga otlangan ayollarning ko`rsatgan jasoratlari tahsinga sazovordir. Ular dushmanga qarshi kurashishlari uchun ruh bag`ishlash maqsadida sovet ittifoqi rahbarlari tomonidan rag`batlantirib borilgan. Zebo G`aniyeva ko`rsatgan jasoratlari uchun “Qizil Bayroq” ordeni bilan mukofotlandi<sup>35</sup>. Bunday ayollar ko`pchilikni tashkil qilgan. Xanifa Mamatkazina ham Vatan oldidagi xizmatlari 2 marta “Qizil Bayroq” ordeni, “III darajali Shuhrat” ordeni, hamda 2 marta “Jasurligi uchun” medallari bilan taqdirlandi<sup>36</sup>. Soliha Davronova Zaparoje shahri uchun 1943-yilning yozidagi jangda qatnashdi.Jangda qahramonlik ko`rsatgani uchun “Jasurligi uchun “medali bilan taqdirlandi.Vatan Soliha Davronovaning mehnatini taqdirladi,uning g`oz ko`kragiga “Qizil Yulduz” II darajali “Vatan uchun” ordenlarini taqdi<sup>37</sup>. Rahima Alimova ko`rsatgan qahramonligi uchun “Jasurligi uchun” medali mukofotlandi. U bir to`da razvedkachilar bilan birga dushmani orqa tarafiga o`tib, nemislarni qirishda hammaga o`rnak bo`ldi.Bu qahramonligi uchun Rahima Alimovaga “Qizil Bayroq” ordeni bilan taqdirlandi<sup>38</sup>. Rayhon Hamroyeva Gomel yonidagi janglarda ko`plab askarlarni halokatdan saqlab qoldi.Unga janglarda ko`rsatgan jasorati uchun “Jasurligi uchun” medali berildi<sup>39</sup>. Janglarda ko`rsatgan jasorati uchun Xosiyat Halimovaga “Jasurligi uchun” va “Jangovar xizmatlari

<sup>32</sup> Vatan sharafi uchun 1945-yil 2-noyabr.N=64(349).Tuzuvchi:Shamsutdinov R.To`plam:Ikkinch jahon urushi va fronti gazetlari.II kitob .-T.:Akademnashr.2017.–B.362.

<sup>33</sup> Sirojev O.Fashizm ustidan erishilgan g`alabada Buxoroliklarning roli. –T.: O`zbekiston.1996. –B.337-338.

<sup>34</sup> “Sovet O`zbekistoni” Berdiyev Y.Qo`shiqning sehri.1974-yil,144-son. –B.44.

<sup>35</sup> “Vatan uchun” 1942-yil 5-noyabrda soni.Tuzuvchi:Shamsutdinov R.To`plam:Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetlari Ikitob. –T.:Akademnashr,2017. –B.29.

<sup>36</sup> Adham Rahmat Shinelli qizlar. –T.: 1970 . –B.103.

<sup>37</sup> “Sovet jangchisi” 1945-yil 22-iyun N-50 (246).Tuzuvchi :Shamsutdinov R.I kitob. –T. :Akademnashr,2017. –B.409.

<sup>38</sup> “Vatan sharafi uchun”1944-yil 16-yanvar N-3(193).Tuzuvchi:Shamsutdinov R.To`plam :Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetlari.II kitob. –T.Akademnashr,2017. –B.27.

<sup>39</sup> Jo`rayev T.O`zbekiston jangchilari Ulug` Vatan urushi frontlarida. –T.:Fan.1975. –B.32.



uchun”medali va boshqa medallar bilan taqdirlandi<sup>40</sup>.Jamila Husainova urushdagi jasoratlari uchun jangovar medallar bilan taqdirlandi<sup>41</sup>.

## XULOSA

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, ikkinchi jahon urushi insoniyatni, jamiyatni umuman barcha sohalarni fashizm balosidan asrab –avaylashga qaratildi.Bu urushda sovet ittifoqi tarkibidagi barcha millat vakillari, jangchilari,askar-zobitlari va ayollari,jumladan,o`zbek ayollari ham ishtirok etdi. Bu kabi ayollarda yuksak vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg`ulari kuchli bo`lgani sababli,Vatan himoyasini or-nomus masalasi sanab,ma`suliyatli vazifani o`zlarining nozik zimmalariga olib,urush frontlariga jo`naganligining o`zi katta jasorat.Sovet davlatining,xususan,o`zbeklarning mard-u maydon ayollari fashist bosqinchilariga qarshi kurashda qahramonlik va jasoratlari bilan o`z fidoyiligini namoyon eta oldi.Har qanday voqea-hodisaning ibtidosi bo`lgani kabi,albatta intihosi ham bo`ladi.1945-yil 2-sentabrda Yaponiyaning taslim bo`lishi bilan ikkinchi jahon urushi ham tugadi.Fashizm ustidan qozonilgan g`alaba bilan yakun topdi.Har qanday voqea-hodisaning boshida inson va uning manfaati,ehtiyoji turadi.Bu urushning g`alaba bilan yakun topishini istagan davlat boshliqlari dunyoda hukmronlik qilish uchun har qanday ishdan voz kechmay,faqat bitta maqsad,ya`ni urushda g`alaba qozonish yo`lida kurash olib bordilar.Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida kurashga otlangan sovet ittifoqi tarkibidagi askar-zobitlarning deyarli barchasi jang maydonlarida halok bo`ldi.Shunday bo`lishiga qaramasdan insonlar urush frontlariga jo`nayverishdi.E`tibor beradigan bo`lsak,urushga 1943-yildan keyin ketgan jangchilar qaytishdi.Vaholanki,ularning ko`pchiligi yarador,mayib-majruh bo`lib qoldi.Ulardan minglab kishilar frontga ko`ngilli bo`lib ketaverdi,dastlab urushga ketganlarning ko`pchiligi halok bo`lgan bo`lsalarda,ularning o`rnini qoplash uchun minglab insonlar Vatan himoyasini sharaflil hisoblab urushga jo`nadi.Sovet davlati tarkibidagi jumladan,o`zbek insonlarda jangovar ruh kuchli bo`lganligi sababli xalqining ishonchini,ota-onasining ishonchini sharaf bilan oqlash uchun hamma vaqt dushmanga qarshi jang qilishga tayyor ekanligini namoyon etdilar.Sovet ittifoqi tarkibidagi davlatlarning insonlari g`alabaga moyilligi sababli,urushning dastlabki yillarida mag`lubiyatga uchrasalar-da,ortga chekinmasdan o`zlarining erk-ozodligi uchun faqat olg`a intildilar. Chunki,bu insonlarda or-nomus va jangovar ruh kuchli

<sup>40</sup> Adham Rahmat Shinelli qizlar. –T.:1970. –B.98-102.

<sup>41</sup> Karimov I.A.O`zbekiston:Milliy istiqloq,iqtisod,siyosat,mafkura.I jild. –T. :O`zbekiston,1996. –B.54.

edi. Bu urushni g'alaba bilan yakunlanishida o'zbek ayollarining ham o'rni beqiyos. Bu ayollarning ko'pchiligi urushning boshidan to'plar gumburlashi, o'qlar yomg'iri va minalarning chinqirib uchishiga qaramasdan dahshatli kurash maydonlarida o'zlarining o'zbek ayoliga xos bo'lgan mardonavor va jangovar ruh bilan kurash olib bordilar. O'zbek ayollari boshqa ayollar singari faqatgina fashistlarga qarshi kurashmasdan, ular o'q-yomg'irlar, o't-alangalarga qaramay, vatan uchun jonini tikkan mard va jasur jangchi va zobitlarning jarohatlariga malham qo'yib, murakkab jarrohlik ishlarini amalga oshirib, ularni jang maydonlariga qaytishiga ko'maklashardi. Bu kabi mehribon ayollar, dovyurak jangchilarni davolab, urush maydonlariga qaytishiga ularga jangovar ruh bag'ishladi. Darhaqiqat, urush frontlarida ona yurtining ozodligini, kuchli va makkor dushmanga bermaslik uchun qonli urushda o'zbek ayoliga xos qahramonlik va botirlik bilan qo'lga qurol tutib, jonajon zaminini himoya qila olishlarini namoyon etdilar. Vaholanki, o'zbek xalqi ayollari butun kuch va shijoatini, bor imkoniyatlarini aziz va jonajon vatanini, serquyosh va betakror O'zbekistoni va barcha sovet davlati kishilarining tinch-osuda va baxtiyor hayoti yo'lida o'z jonini ayamada sarf qilgan qahramon ayollarining jasoratlari o'zbek tarixi zarvaraqlaridan munosib o'rin egalladi.

## REFERENCES

1. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T.: O'zbekiston. 1996. T.3. - B.81.
2. Karimov I. A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. I jild.- T.: O'zbekiston, 1996. - B.54.
3. Inoyatov H. G'alabaga qo'shilgan hissa. - T. Fan, 1975.
4. O'zbekiston tarixi ( 1917-1991) 2-kitob. -T.:O'zbekiston, 2019.
5. Surxondaryo tarixi Tursunov S, Qobilov E, Murtazoev B, Pardayev T. - T.: Sharq, 2004.
6. Xotira Toshkent shahri. 1- kitob. - T.: Qomuslar bosh tahririyati. -B.6.
7. Xotira Samarqand shahri.1- kitob. - T.: Ibn Sino nomidagi matbaa- nashriyoti birlashmasi, 1994.
8. Yorbozorova Z. Ikkinchi jahon urushida o'zbekistonlik xotin- qizlarning faoliyati. B.M.I.Qarshi. 2013.
9. Xotira Xorazm shahri.1- kitob. - T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot. 1994.
10. Xotira Farg'ona shahri. 2- kitob. - T.: Qomuslar bosh tahririyati.1994. .

11. Xotira Andijon. 1- kitob. - T.: Mehnat. 1994.
12. Adham Rahmat. Shinelli qizLar. - T.: , 1970.
13. Jo'rayev T. O'zbekiston jangchilari Ulug' Vatan urushi frontlarida. - T.: Fan, 1975. - B. 32.
14. Sirojev O. Fashizm ustidan erishilgan g'alabada Buxoroliklarning roli. - T.: O'zbekiston, 1996. -B. 337-338.
15. Vatan sharafi uchun. 1944-yil 16- yanvar. N-3. (193). Tuzuvchilar: Shamsutdinov R. To'plam. Ikkinchi jahon urushi fronti va gazetalari. II jild. -T.: Akademnashr, 2017. - B.26.
16. Qizil Armiya 1944-yil 7-mart. N- 20. (125). Tuzuvchi: Shamsutdinov R. To'plam. II jild. Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari. - T.: Akademnashr, 2017. - B.441.
17. " Bong " gazeta. 1944-yil 19-may. N-41.(121). Tuzuvchi: Shamsutdinov R. To'plam. Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari, Akademnashr. 2017. - B.441.
18. Vatan uchun 1942-yil 5- noyabrdagi soni. Tuzuvchi: Shamsutdinov R. To'plam, Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari. - T.: Akademnashr, 2017. -B. 29.
19. " Sovet O'zbekistoni" Berdiyev Y. Qo'shiqning sehri. 1974-yil. 144- son. - B.44.
20. " Sovet jangchisi" 1945-yil 22-iyun. N- 50. (246). Tuzuvchi: Shamsutdinov R. To'plam, Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari. -T.: Akademnashr, 2017. - B. 409.